FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 30 - dekabr 362-11-165-Q/22 Yozyovon tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y, 15-son, 197-modda) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 09 martdagi 125- sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021 y, 09/21/125/0195-son) muvofiq tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi engil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

3. Mazkur Nizomning 5-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart — 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentabr — 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi

1 yanvar — 31 dekabrda o‘tkaziladi.

4. Yangi transport vositalari DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda texnik ko‘rikdan o‘tkazilmaydi

5. Transport vositalari DYHXX organlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan miqdorda yig‘im undiriladi. Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari

takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik uchun yig‘im undiriladi. Texnik ko‘rik o‘tkazilganligi uchun yig‘im summasi mahalliy budjetga o‘tkazilsin.

6. Texnik ko‘rikni o‘tkazish jadvali 1-ilovaga; texnik ko‘rikni o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Texnik ko‘rikni o‘tkazish bo‘yicha komissiya raisi (Q.Yuldashev)ga: yuridik shaxslarga texnik ko‘rik o‘tkaziladigan muddatlar to‘g‘risidagi bildirishnoma yuborish; Texnik ko‘rikni tashkilotlarda, diagnostika stansiyalarida (mobil stansiyalarida) va texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida ish vaqtida, texnik nazorat postlarida ish kunlarining kunduzgi va tungi vaqtlarida yoki haftaning dam olish kunlaridan birida o‘tkazish; texnik ko‘rikdan o‘tkazishda texnik jihatdan nosoz deb topilgan transport vositasining, shuningdek texnik holati belgilangan talablarga javob bermaydigan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarining kamchiliklari va nosozliklarini bartaraf etish bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli choralarni ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

8. “Markaziy Farg`ona” (A.Xudoyqulov) gazetasida mazkur qaror e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari D.Bekmirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**